


## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida viloyatda 2920 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46,0 foizga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1565 ta (11,4%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15284 tani tashkil etgan.


**Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,6 % savdoda, 12,7 % sanoatda, 11,5 % qurilishda, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,5 % tashish va saqlashda, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1,3 % axborot va aloqada va 30,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>16093</b>	<b>15284</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Termiz sh.	3330	3263	20,7	21,3
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	627	584	3,9	3,8
Angor	783	740	4,9	4,8
Boysun	778	763	4,8	5,0
Muzrabot	708	696	4,4	4,6
Denov	1875	1675	11,7	11,0
Jarqo'rg'on	1254	1241	7,8	8,1
Qumqo'rg'on	1020	917	6,3	6,0
Qiziriq	843	821	5,2	5,4
Sariosiyo	873	818	5,4	5,4
Termiz	1158	1125	7,2	7,4
Uzun	927	798	5,8	5,2
Sherobod	882	862	5,5	5,6
Sho'rchi	1035	981	6,4	6,4

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2920 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 46,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (560 ta), Denov (367 ta), Sho'rchi (276 ta), Qumqo'rg'on (209 ta), Termiz (194 ta), Jarqo'rg'on (193 ta), Qiziriq (166 ta), Uzun (158 ta), Angor (154 ta), Sherobod (150 ta), Sariosiyo (148 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (97 ta), Boysun (111 ta) hamda Muzrabot (137 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (711 ta), boshqa turlarida (600 ta), sanoatda (503 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (381 ta), qurilishda (368 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (190 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (20 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta) hamda tashish va saqlashda (89 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 dekabr xolatiga			2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	202	237,6	12,7	298	147,5	14,9	381	127,9	13,0
Sanoat	234	109,3	14,7	354	151,3	17,7	503	142,1	17,2
Qurilish	215	128,7	13,5	250	116,3	12,5	368	147,2	12,6
Savdo	449	123,0	28,2	461	102,7	23,1	711	154,2	24,3
Tashish va saqlash	91	156,9	5,7	115	126,4	5,8	89	77,4	3,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	178	149,6	11,2	223	125,3	11,2	190	85,2	6,5
Axborot va aloqa	33	300,0	2,1	20	60,6	1,0	20	100,0	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	90,0	1,1	36	200,0	1,8	58	161,1	2,0
Boshqa turlari	174	83,7	10,9	243	139,7	12,2	600	246,9	20,5

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 11851 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5620 ta, xususiy korxonalar – 5108 ta, oilaviy korxonalar – 746 ta, va boshqalar 377 tani tashkil etadi.




### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 167 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 110 taga yoki 293,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 69 tasi qo'shma korxonalar, 98 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda





### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar 71 ta (42,4%), Termiz 17 ta (10,2%), Denov 10 ta (6,0%), Sariosiyo va Jarqo'rg'on tumanlarida 9 ta dan (5,4% dan), Muzrabot 8 ta (4,8%), Uzun, Angor va Qiziriq tumanlarida 7 ta dan (4,2% dan), Qumqo'rg'on, Sherobod va Sho'rchi tumanlarida 6 ta dan (3,6% dan) hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Oltinsoy 3 ta (1,8%) hamda Boysun tumanlarida 1 ta (0,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 51 ta (30,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 47 ta (28,1 %), savdoda 34 ta (20,4 %), qurilish va boshqa faoliyat turlarida 10 ta dan (6,0 %dan) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1ta (0,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 ta (2,4 %) va tashish va saqlashda 8 ta (4,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy

qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 110 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta, Koreya Respublikasi - 1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi - 1 ta, Buyuk Britaniya– 1 ta, Turkmaniston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 3 ta, Gruzya Respublikasi - 2 ta, Eron Islom Respublikasi - 4 ta, Qozogiston Respublikasi – 3 ta, Tojikiston Respublikasi - 6 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 77 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 40 ta, sanoatda 23 ta, savdoda 25 ta, qurilishda 9 ta, va boshqa faoliyat turlarida 5 ta, tashish va saqlashda 4 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
	<b>8</b>			<b>110</b>		
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	3	3,0	42,8	40	13,3	41,2
<b>Sanoat</b>	2	0,7	28,6	23	11,5	20,6
<b>Qurilish</b>				9		8,8
<b>Savdo</b>	2	2,0	28,6	25	12,5	19,6
<b>Tashish va saqlash</b>				4		2,9
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>				3		1,0
<b>Axborot va aloqa</b>						
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	1			1	1,0	
<b>Boshqa turlari</b>				5		5,9

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**


2018 yil 1 dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11763 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 10,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2780 tasi (23,6%) Termiz shahriga, 1289 tasi (11,0%) Denov, 979 tasi (8,3%) Jarqo'rg'on hamda 967 tasi (8,2%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11763 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3592 tasi (30,5 %) – savdoda, 1911 tasi (16,3 %) - sanoatda, 1746 tasi (14,8 %) - qurilishda, 1106 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1059 tasi (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 671 tasi (5,7 %) - tashish va saqlashda, 218 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 187 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1273 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi

sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2636 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz sh.(511 ta), Denov (339 ta), Sho'rchi (269 ta), Termiz (180 ta), Jarqo'rg'on (175 ta), Qumqo'rg'on (174 ta), Qiziriq (154 ta) va Angor (147 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Sherobod (143 ta), Uzun (139 ta), Sariosiyo (122 ta), Muzrabot (118 ta), Boysun (101 ta) hamda Oltinsoy (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (710 ta), sanoatda (503 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (381 ta), qurilishda (367 ta), boshqa turlarida (319 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (190 ta) tashkil etilgan.

Eng kam esa tashish va saqlashda (89 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (57 ta) hamda axborot va aloqada (20 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni





### Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 803 tani tashkil etib, ulardan 746 tasi yoki 92,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 23,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.




### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 32,0 % yoki 239 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,4 % yoki 182 tasi sanoat, 22,4 % yoki 167 tasi savdo, 12,5 % yoki 93 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 1,5 % yoki 11 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 4,5 % yoki 34 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari va sanoat eng kami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:76-223-06-95